



UDK: 94(575.1):37.01

*Fazliddin ESANOV,*  
*Tayanch doktorant, O'zbekiston Milliy universiteti, Toshkent, O'zbekiston*  
*E-mail: esanovfazliddin@gmail.com*

*Buxoro davlat texnologiyalar universiteti dotsenti, DSc J. Shodiyev taqrizi asosida*

## THE ROLE OF THE SPIRITUAL HERITAGE OF THE JADIDS IN ENSURING THE STABILITY OF NEW UZBEKISTAN

Annotation

This article analyzes the role of the spiritual and educational heritage of the Jadids in strengthening the stability of New Uzbekistan. The study reveals that Jadidism was not only a cultural and educational movement, but also a socio-philosophical phenomenon aimed at renewing society through knowledge, school reform, national self-awareness, press, literature and social responsibility. The article examines the views of Mahmudkhoja Behbudi, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloni, Munavvarqori Abdurashidkhanov and other representatives of the movement on education, morality, language, identity and social modernization. The research concludes that the Jadid heritage remains an important intellectual source for educating a knowledgeable, patriotic and socially active generation in modern Uzbekistan.

**Key words:** Jadidism, enlightenment, spiritual heritage, New Uzbekistan, stability, education, national awakening, school, press, social reform.

## РОЛЬ ДУХОВНОГО НАСЛЕДИЯ ДЖАДИДОВ В ОБЕСПЕЧЕНИИ СТАБИЛЬНОСТИ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА

Аннотация

В данной статье анализируется роль духовно-просветительского наследия джадидов в укреплении стабильности Нового Узбекистана. Обосновывается, что джадидизм являлся не только культурно-просветительским движением, но и социально-философским явлением, направленным на обновление общества посредством науки, реформы школы, национального самосознания, печати, литературы и социальной ответственности. В статье рассматриваются взгляды Махмудходжи Бехбуди, Абдурауфа Фитрата, Абдуллы Авлони, Мунавваркори Абдурашидханова и других представителей движения на образование, нравственность, язык, идентичность и общественную модернизацию. Сделан вывод о том, что наследие джадидов сохраняет важное значение в воспитании образованного, патриотичного и социально активного поколения.

**Ключевые слова:** Джадидизм, просветительство, духовное наследие, Новый Узбекистан, стабильность, образование, национальное пробуждение, школа, печать, социальная реформа.

## JADIDLAR MA'NAVY MEROSINING YANGI O'ZBEKISTON BARQARORLIGINI TA'MINLASHDAGI O'RNI

Annotatsiya

Mazkur maqolada jadidlar ma'naviy-ma'rifiy merosining Yangi O'zbekiston barqarorligini ta'minlashdagi o'rni ijtimoiy-falsafiy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Jadidchilik harakati faqat madaniy-ma'rifiy hodisa emas, balki jamiyatni ilm, maktab, matbuot, milliy o'zlik, axloqiy tarbiya va ijtimoiy mas'uliyat orqali yangilashga qaratilgan keng ko'lamlı taraqqiyparvarlik harakati sifatida baholanadi. Maqolada Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov va boshqa jadid namoyandalarning ta'lim, axloq, til, milliy uyg'onish va jamiyat islohoti haqidagi qarashlari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, jadidlar merosi bugungi kunda yosh avlodni bilimni, vatanparvar, mas'uliyatli va ijtimoiy faol shaxs sifatida tarbiyalashda muhim nazariy va amaliy manba bo'lib xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** Jadidchilik, ma'rifatparvarlik, ma'naviy meros, Yangi O'zbekiston, barqarorlik, ta'lim, milliy uyg'onish, maktab, matbuot, ijtimoiy islohot.

**Kirish.** Yangi O'zbekiston taraqqiyoti sharoitida milliy tarix, ma'naviy meros va ma'rifiy qadriyatlarini ilmiy asosda o'rganish alohida dolzarblik kasb etmoqda. Jamiyat barqarorligi faqat iqtisodiy ko'rsatkichlar yoki huquqiy institutlar bilan emas, balki xalqning ma'naviy immuniteti, tarixiy xotirasi, ijtimoiy birdamligi va ma'rifatga munosabati bilan ham belgilanadi. Shu jihatdan jadidlar merosi xalqimizning XX asr boshlaridagi uyg'onish tajribasini, ilmga intilish ruhini, milliy o'zlikni anglash jarayonini va taraqqiyotga bo'lgan ehtiyojini yorituvchi muhim manbadir.

Jadidchilik yoki jadidizm XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Turkiston, Qrim, Kavkaz va boshqa musulmon hududlarida shakllangan ijtimoiy-siyosiy, madaniy va ma'rifiy

harakat sifatida namoyon bo'ldi. "Jadid" so'zi arabcha "yangi" ma'nosini bildirib, bu harakatning asosiy mazmuni jamiyatni yangicha maktab, yangicha tafakkur va zamonaviy bilimlar orqali isloh qilish g'oyasida mujassam edi. Turkistonda jadidchilik g'oyalari XIX asrning 90-yillaridan boshlab yoyildi va XX asrning dastlabki o'n yilliklarida maktab, matbuot, teatr, adabiyot, til va ijtimoiy ong sohaslarida sezilarli o'zgarishlar yasadi [3].

Jadidlar xalqning og'ir ijtimoiy ahvolini, ta'lim tizimidagi sustkashlikni, eski usul maktablarining zamon talablariga javob bermasligini, ilm-fan va texnika yutuqlaridan orqada qolish xavfini chuqur angladilar. Ular millatni jaholatdan qutqarishning asosiy yo'lini maktab islohoti,

savodxonlikni oshirish, dunyoviy fanlarni o'qitish, milliy matbuotni rivojlantirish va yosh avlodni ma'rifatli qilib tarbiyalashda ko'rdilar. Abdurauf Fitratning tarbiya haqidagi fikrlarida ham xalqning baxtli yoki xor bo'lishi ko'p jihatdan bolalikda berilgan tarbiyaga bog'liq ekanini ta'kidlanadi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning Yangi O'zbekiston strategiyasida ham ma'naviy-ma'rifiy yuksalish, yoshlar tarbiyasi, milliy qadriyatlarini asrash va zamonaviy bilimlarni egallash davlat siyosatining muhim yo'nalishlari sifatida belgilangan [1]. Bu yondashuv jadidlar ilgari surgan ilm, ma'rifat, maktab, milliy o'zlik va taraqqiyot g'oyalari bilan mazmunan hamohangdir. Binobarin, jadidlar merosini bugungi ijtimoiy barqarorlik, ma'naviy yangilanish va milliy taraqqiyot jarayonlari bilan bog'liq holda o'rganish ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Maqolaning maqsadi jadidlar ma'naviy merosining Yangi O'zbekiston barqarorligini ta'minlashdagi ijtimoiy-falsafiy o'rnini ochib berishdan iborat. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun jadidchilik harakatining tarixiy shakllanishi, uning asosiy g'oyaviy yo'nalishlari, ta'lim va ma'rifat borasidagi qarashlari, milliy ongning yuksaltirishdagi vazifalari hamda bugungi taraqqiyot jarayonlari bilan bog'liqligi tahlil qilinadi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Jadidchilik harakati tarixshunoslik, adabiyotshunoslik, falsafa, pedagogika va siyosiy tafakkur doirasida keng o'rganilgan murakkab ijtimoiy hodisadir. D. Alimovning "Jadidchilik fenomeni" asarida jadidchilik Turkiston jamiyatidagi uyg'onish, islohot va ma'rifiy yangilanish jarayoni sifatida talqin qilinadi [3]. Muallif jadidchilikni faqat alohida shaxslar faoliyati emas, balki tarixiy sharoit, ijtimoiy ehtiyoj va madaniy modernizatsiya talablaridan kelib chiqqan harakat sifatida baholaydi.

H. Boltaboyevning Fitrat hayoti va ijodiga bag'ishlangan tadqiqotlarida Abdurauf Fitrat jadidchilikning eng yorqin vakillaridan biri sifatida ko'rsatiladi [4]. Fitratning "Munozara", "Bayonoti sayyohi hindi", "Sarf" kabi asarlarida Buxoro jamiyatidagi qoloqlik, ta'limdagi muammolar, til va imlo masalalari, millatning uyg'onishi, islohot zarurati chuqur ifodalangan. Bu tadqiqotlar jadidlar merosini ijtimoiy tanqid, ma'rifat va milliy yangilanish uyg'unligida ko'rish imkonini beradi.

I. Gaspirali faoliyati jadidchilikning umumturkiy miqyosda tarqalishida muhim o'rin tutadi. Uning "usuli savtiya" - tovush usuliga asoslangan maktablari qisqa muddat ichida savod chiqarish imkonini bergan. "Tarjimon" gazetasi esa turkiy xalqlar orasida ilm, maktab, birlik va taraqqiyot g'oyalarini keng yoydi. Turkistonda Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abduqodir Shakuriy kabi ma'rifatparvarlar yangi usul maktablarini tashkil etib, darsliklar yaratganlar [8].

Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" asari jadid pedagogikasining axloqiy-falsafiy asoslarini anglashda muhim manbadir [9]. Unda tarbiya, axloq, ilm, vatanparvarlik va insoniy fazilatlar jamiyat taraqqiyotining zarur sharti sifatida talqin etiladi. Mahmudxo'ja Behbudiy asarlarida esa maktab, teatr, matbuot va milliy ong masalalari uyg'un holda ko'tariladi. U jadid matbuoti orqali xalqni ogohlikka, ilmga, ijtimoiy faollikka chorlagan [10].

Sovet davri adabiyotlarida jadidchilik ko'pincha "burjua-liberal" yoki "millatchilik" harakati sifatida biryozlama baholangan. Mustaqillikdan keyin esa jadidlar nomi tiklandi, asarlari qayta nashr qilindi, ularning milliy uyg'onish, ma'rifat va taraqqiyot yo'lidagi xizmatlari xolisona o'rganila boshladi. Bu jarayon o'zbek xalqining tarixiy xotirasini tiklash, ma'naviy merosga yangicha munosabatni shakllantirish va milliy o'zlikni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etdi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Maqolada tarixiylik, tizimlilik, qiyosiy tahlil, ijtimoiy-falsafiy yondashuv va manbashunoslik tahlili metodlaridan foydalanildi. Tarixiylik metodi jadidchilik harakatining yuzaga kelish sharoitlarini, uning bosqichlarini va

1-jadval. Jadidlar merosining Yangi O'zbekiston barqarorligiga ta'sir yo'nalishlari

Yo'nalish	Jadidlar merosidagi ifodasi	Bugungi ahamiyati	Kutiladigan natija
-----------	-----------------------------	-------------------	--------------------

Turkiston jamiyatidagi ehtiyojlar bilan bog'liqligini aniqlashga xizmat qiladi. Tizimlilik metodi jadidlar faoliyatini maktab, matbuot, adabiyot, teatr, til, imlo va ijtimoiy islohotlar bilan yaxlit bog'liqlikda ko'rib chiqishga imkon beradi.

Qiyosiy tahlil metodi orqali jadidlar qarashlari bugungi Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi, ma'naviy-ma'rifiy islohotlar va yoshlar siyosati bilan bog'liq holda tahlil qilindi. Bu yondashuv jadidlar ilgari surgan g'oyalar zamonaviy jamiyat uchun ham o'z ahamiyatini saqlab qolganini ko'rsatadi. Manbashunoslik tahlili esa jadid namoyandalarning asarlari, ular haqidagi ilmiy tadqiqotlar va tarixiy adabiyotlar asosida xulosalar chiqarishga yordam beradi.

Tadqiqotning obyekti jadidchilik harakati va uning ma'naviy-ma'rifiy merosidir. Tadqiqot predmeti esa jadidlar merosining Yangi O'zbekiston barqarorligini ta'minlashdagi g'oyaviy, axloqiy, ta'limiy va ijtimoiy-falsafiy ahamiyatini o'rganishdan iborat. Tadqiqotda asosiy e'tibor jadidlar merosining zamonaviy shaxs tarbiyasi, milliy ong, vatanparvarlik, ijtimoiy mas'uliyat va ma'rifiy taraqqiyot bilan bog'liqligiga qaratildi.

Maqola doirasida birlamchi manba sifatida jadid namoyandalarning asarlari va ular haqidagi tadqiqotlarga tayanildi. Ikkilamchi manba sifatida jadidchilik tarixi, o'zbek ma'rifatparvarligi, milliy uyg'onish va Yangi O'zbekiston ma'naviy siyosatiga oid ilmiy adabiyotlardan foydalanildi. Ushbu metodologik asos mavzuni tarixiy faktlar va zamonaviy ijtimoiy ehtiyojlar uyg'unligida yoritish imkonini berdi.

**Tahlil va natijalar.** Jadidlar merosini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ularning asosiy maqsadi xalqni ilm-ma'rifat orqali uyg'otish, milliy ongning yuksaltirish va jamiyatni taraqqiyot yo'lga olib chiqishdan iborat bo'lgan. Ular o'z faoliyatida avvalo ta'lim masalasiga e'tibor qaratdilar. Chunki maktabni isloh qilmasdan turib, xalq tafakkurini yangilash, yosh avlodni zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish va millatning kelajagini ta'minlash mumkin emasligini yaxshi angladilar.

Jadid maktablarining tashkil etilishi Turkiston jamiyatida tub ma'rifiy burilish yasadi. Ismoilbek Gaspirali tomonidan ilgari surilgan "usuli savtiya" tajribasi qisqa muddatda savod chiqarish imkonini berdi. Turkistonda Andijon, Qo'qon, Toshkent, Samarqand va Buxoro hududlarida yangi usul maktablari ochildi. Munavvarqorining "Adibi avval", Abdulla Avloniyning "Birinch muallim" va "Ikkinchi muallim", Saidrasul Aziziyning "Ustodi avval" kabi darsliklari yosh avlodga yangi pedagogik yondashuv asosida bilim berishga xizmat qildi [3].

Jadidlar faoliyatida matbuot alohida o'rin tutdi. "Taraqqiy", "Xurshid", "Shuhrat", "Osioy", "Samarqand", "Sadoyi Turkiston", "Sadoyi Farg'ona" kabi gazetalar va "Oyina", "Al-isloh" kabi jurnallar xalq orasida ma'rifat, yangilanish, milliy o'zlik, ijtimoiy mas'uliyat va taraqqiyot g'oyalarini tarqatdi. Matbuot jadidlar uchun shunchaki axborot vositasi emas, balki xalq ongini uyg'otish, jamiyatdagi muammolarni ko'rsatish va islohot zaruratini asoslash maydoni edi.

Abdurauf Fitrat ijodida jadidchilikning ijtimoiy-tanqidiy ruhi yaqqol ko'rinadi. U Buxoro jamiyatidagi qoloqlik, ta'limdagi eskilik, ma'muriy adolatsizlik va ruhoniylar qatlamning ayrim noto'g'ri talqinlarini tanqid qilar ekan, aslida jamiyatni ichki yangilanishga chaqirgan. Fitratning "Bayonoti sayyohi hindi" asarida tashqi kuzatuvchi nigohi orqali Buxoro hayotidagi kamchiliklar, ilm-fanning susayishi, adolat tizimidagi muammolar va ta'limdagi sustkashliklar ochib beriladi [4].

Jadidlar til va imlo masalasini ham milliy taraqqiyotning muhim sharti sifatida ko'rdilar. "Chig'atoy gurg'ini" tashkiloti o'zbek tili, adabiyoti, tarixi va san'atini o'rganish, arab imlosini isloh qilish, o'zbek tilining tovush xususiyatlariga mos yozuv tizimini yaratish g'oyalarini ilgari surdi. Bu harakat panturkizm bilan cheklanib qolmagan, balki o'zbek tilining ichki imkoniyatlarini rivojlantirish, milliy adabiy tilni mustahkamlash va ma'rifiy ishlarni xalq tilida olib borishga qaratilgan edi.

Ta'lim	Yangi usul maktablari, darsliklar, savodxonlik	Zamonaviy bilimli yoshlarni tarbiyalash	Inson kapitali kuchayadi
Ma'rifat	Matbuot, teatr, adabiyot orqali ongini uyg'otish	Axborot madaniyati va tanqidiy fikr rivojlanadi	Ma'naviy immunitet mustahkamlanadi
Milliy o'zlik	Til, imlo, tarix va adabiyotga e'tibor	Tarixiy xotira va vatanparvarlik kuchayadi	Ijtimoiy birdamlik ortadi
Ijtimoiy islohot	Qoloqlik, jaholat va adolatsizlikka qarshi kurash	Fuqarolik mas'uliyati va faollik rivojlanadi	Barqaror taraqqiyot ta'minlanadi

Manba: muallif tomonidan jadidchilikka oid ilmiy adabiyotlar tahlili asosida tuzildi.

Jadvaldan ko'rinadiki, jadidlar merosi bugungi jamiyat barqarorligiga bir necha asosiy yo'nalish orqali ta'sir ko'rsatadi. Birinchidan, ta'lim va savodxonlik orqali inson kapitalini rivojlantiradi. Ikkinchidan, ma'rifat va matbuot orqali tanqidiy fikrlashni shakllantiradi. Uchinchidan, til, tarix va adabiyotga e'tibor orqali milliy o'zlikni mustahkamlaydi. To'rtinchidan, ijtimoiy islohot g'oyasi orqali fuqarolik mas'uliyati va jamiyatdagi faol pozitsiyani kuchaytiradi.

Jadidlar ma'naviy merosining Yangi O'zbekiston uchun yana bir muhim jihati shundaki, ular milliylik va zamonaviylikni qarama-qarshi qo'yamaganlar. Aksincha, milliy qadriyatlarini saqlagan holda dunyoviy bilimlarni egallash, zamon bilan hamnafas bo'lish, xalqni ilm-fan yutuqlaridan bahramand qilish zarurligini ilgari surganlar. Bu yondashuv bugungi islohotlar uchun ham dolzarbdir. Chunki zamonaviy taraqqiyot milliy ildizlardan uzilishni emas, balki tarixiy merosni yangi sharoitda ijodiy rivojlantirishni talab qiladi.

Yangi O'zbekiston barqarorligi uchun jadidlar merosidan olinadigan eng muhim saboqlardan biri - ma'rifatga tayanish tamoyilidir. Ma'rifatli jamiyatda yoshlar radikal g'oyalarga, jaholatga, befarqlikka va ijtimoiy loqaydlikka kamroq beriladi. Bilimli, tanqidiy fikrlaydigan, tarixiy xotiraga ega shaxs jamiyatning barqaror rivojlanishida faol ishtirok etadi. Jadidlar aynan shunday shaxsni tarbiyalashni maqsad qilgan edilar.

Jadidlarning ayollar ta'limi, yoshlar tarbiyasi va jamiyatdagi adolat masalalariga e'tibor bergani ham ularning merosini bugungi kun uchun muhim qiladi. Ular xalqning yarmi savodsiz qolgan jamiyatda haqiqiy taraqqiyot bo'lishi qiyinligini angladilar. Shu bois maktab, oila, tarbiya va axloq masalalarini bir-biridan ajratmay tahlil qildilar. Abdulla Avloniy "tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir" degan g'oyani ilgari surar ekan, tarbiyaning jamiyat taqdiridagi hal qiluvchi o'rini ko'rsatgan edi [9].

Tahlillar asosida shuni aytish mumkinki, jadidlar merosi Yangi O'zbekiston barqarorligiga uch darajada xizmat qiladi. Birinchi daraja - shaxsiy daraja bo'lib, u yoshlarning ilmga intilishi, axloqiy yetukligi va vatanparvarligini shakllantiradi. Ikkinchi daraja - ijtimoiy daraja bo'lib, u jamiyatda ma'rifat, birdamlik, mas'uliyat va ijtimoiy faollikni kuchaytiradi. Uchinchi daraja - milliy daraja bo'lib, u tarixiy xotira, milliy o'zlik va taraqqiyot strategiyasining ma'naviy asoslarini mustahkamlaydi.

Jadidlar merosini bugungi ta'lim va tarbiya tizimiga keng joriy etish zarur. Buning uchun ularning asarlarini zamonaviy tilda

izohli nashr qilish, oliy ta'lim muassasalarida jadidlar ma'naviy merosi bo'yicha maxsus kurslar tashkil etish, maktab darsliklarida jadidlarning ilm, ma'rifat va tarbiya haqidagi qarashlarini kengroq yoritish, elektron resurslar va multimedia materiallari tayyorlash muhimdir. Bunday ishlar yosh avlodda tarixiy xotira va ma'naviy immunitetni kuchaytiradi.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytganda, jadidlar ma'naviy merosi Yangi O'zbekiston barqarorligini ta'minlashda muhim ijtimoiy-falsafiy, ma'rifiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega. Jadidlar xalqni ilm-ma'rifat orqali uyg'otish, ta'limni isloh qilish, milliy matbuotni rivojlantirish, til va imlo masalalarini tartibga solish, yoshlarni vatanparvar va ijtimoiy faol shaxs sifatida tarbiyalash g'oyalari ilgari surdilar. Ularning qarashlari bugungi ma'naviy yangilanish va taraqqiyot jarayonlari bilan mazmunan uyg'un keladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, jadidlar merosi tarixiy xotira sifatida emas, balki bugungi jamiyatni ma'naviy mustahkamlovchi amaliy manba sifatida qaralishi lozim. Ularning ilm, maktab, axloq, milliy o'zlik, adolat va ijtimoiy mas'uliyat haqidagi g'oyalari yosh avlodni ma'rifatparvarlik ruhida tarbiyalash, fuqarolik madaniyatini rivojlantirish va barqaror jamiyat asoslarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Birinchidan, jadidlar asarlarini izohli va zamonaviy tilda qayta nashr etish, ularni elektron kutubxonalar va ochiq ta'lim platformalariga joylashtirish maqsadga muvofiq. Ikkinchidan, oliy ta'lim muassasalarida "Jadidlar ma'naviy merosi va Yangi O'zbekiston taraqqiyoti" mavzusida maxsus seminar va tanlovlar tashkil etish zarur. Uchinchidan, jadidlar faoliyatiga oid arxiv hujjatlari, gazeta-jurnallari va darsliklarni raqamlashtirish orqali ilmiy tadqiqotlar uchun qulay baza yaratish lozim.

To'rtinchidan, jadidlar merosini yoshlar tarbiyasi bilan bog'lab o'rganish, ularning ilmga intilish, vatanparvarlik, mas'uliyat, axloqiy poklik va ijtimoiy faollik haqidagi g'oyalari ta'lim jarayoniga keng kiritish kerak. Beshinchidan, jadidlar merosini faqat tarixiy mavzu sifatida emas, balki zamonaviy ma'naviy xavfsizlik, axborot madaniyati, milliy identitet va barqaror taraqqiyot masalalari bilan bog'liq holda tadqiq etish zarur.

Demak, jadidlar ma'naviy merosini chuqur o'rganish va targ'ib qilish Yangi O'zbekistonning ma'naviy asoslarini mustahkamlash, yosh avlodni ilmiy va ma'rifatli qilib tarbiyalash, jamiyatda birdamlik, vatanparvarlik va ijtimoiy mas'uliyatni kuchaytirish uchun zarur ilmiy-amaliy yo'nalishlardan biridir.

#### ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. - Toshkent: O'zbekiston, 2021. - 464 b.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. - Toshkent: Ma'naviyat, 2008. - 176 b.
3. Alimova D. Jadidchilik fenomeni. - Toshkent: Akademiya, 2022. - 256 b.
4. Boltaboyev H. Fitrat va jadidchilik. - Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007. - 280 b.
5. Boltaboyev H. Abdurauf Fitrat. - Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022. - 160 b.
6. Nomozova K. Jadidchilik: muammolar, islohot va qarashlar. - Toshkent: Fan, 2019. - 144 b.
7. Dolimov U. Turkistonda jadid maktablari. - Toshkent: Universitet, 2006. - 180 b.
8. Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. - Toshkent: Universitet, 1999. - 240 b.
9. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. - Toshkent: O'qituvchi, 1992. - 160 b.
10. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. - Toshkent: Ma'naviyat, 1999. - 280 b.
11. Fitrat A. Tanlangan asarlar. - Toshkent: Ma'naviyat, 2000. - 256 b.
12. Ismailov A. va boshqalar. Kreativ fikrlashni baholash. Qo'llanma. - Toshkent: Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi, 2021. - 92 b.